

**TRANZITOR GIPOTERMIK XOLAT – TUSHUNCHA, SABABLARI,  
EPIDEMIOLOGIYASI, PATOFIZIOLOGIYASI, KLASSIFIKATSIYASI, KLINIK  
BELGILARI VA JIZZAX VILOYAT BOLALAR KO'P TARMOQLI TIBBIYOT  
MARKAZI QABUL BO'LIMI GA MUROJAAT QILGAN BEMORLAR TAXLILI.**

**ТРАНЗИТОРНОЕ ПЕРЕОХЛАЖДЕНИЕ – ПОНЯТИЕ, ПРИЧИНЫ,  
ЭПИДЕМИОЛОГИЯ, ПАТОФИЗИОЛОГИЯ, КЛАССИФИКАЦИЯ,  
КЛИНИЧЕСКИЕ ПРИЗНАКИ И АНАЛИЗ ПАЦИЕНТОВ, ОБРАТИВШИХСЯ В  
ПРИЕМНОЕ ОТДЕЛЕНИЕ ДЖИЗАКСКОГО ОБЛАСТНОГО ДЕТСКОГО  
МНОГОПРОФИЛЬНОГО МЕДИЦИНСКОГО ЦЕНТРА.**

**TRANSIENT HYPOTHERMIA – THE CONCEPT, CAUSES, EPIDEMIOLOGY,  
PATHOPHYSIOLOGY, CLASSIFICATION, CLINICAL SIGNS AND ANALYSIS OF  
PATIENTS WHO APPLIED TO THE EMERGENCY DEPARTMENT OF THE  
JIZZAKH REGIONAL CHILDREN'S MULTIDISCIPLINARY MEDICAL CENTER.**

**Ergashev Elbek Orif o'g'li**

**JDPU Umumkasbiyfanlar kafedrası Tibbiyot fakulteti o'qituvchisi  
+998915674906**

**Aliqulov Husan Raximbek o'g'li**

**JDPU Umumkasbiyfanlar kafedrası Tibbiyot fakulteti o'qituvchisi  
+998905154159**

**husanaliqulov11@gmail.com**

**Telmanova Mohinur Shoakbar qizi**

**JDPU Tibbiyot fakulteti talabasi  
@mokhinurtelmanova04@gmail.com**

**Annotatsiya:**

Tasodifiy gipotermiya - bu tana haroratining 35 °C dan pastga tushishi bo'lib har yili dunyo bo'ylab minglab odamlar birlamchi gipotermiyadan va birqancha sondagi bemorlar ikkilamchi gipotermiyadan vafot etadi. Kasalxonaga qadar shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatadigan bemorlarda, yaralangan va mast bo'lgan bemorlar gipotermiya paydo bo'lishi hatto subtropik mintaqalarda ham tana harorati tez pasayishi kuzatiladi. Kasal yoki shikastlangan bemorlarda gipotermiyani oldini olish uchun profilaktika choralarini ko'rish muhimdir. Yurak xuruji xavfini tashxislash va baholash klinik belgilarga va iloji bo'lsa, tana haroratini o'lchashga asoslangan. Gipotermiya bilan og'rikan bemorlarni yurak to'xtab qolish xurujining xavf omillari (yosh va sog'lom bemorlarda harorat < 30 °C, keksa odamlarda yoki bir nechta qo'shma kasalliklarga chalingan bemorlarda <32 °C), qorincha ritmining buzilishi yoki sistolik qon bosimi < 90 mm HG bo'lgan bemorlarni, shuningdek, gipotermiya bilan og'rikan bemorlar, ular allaqachon yurak xurujiga uchragan, to'g'ridan-to'g'ri hayotni qo'llab-quvvatlash markaziga (Shoshilinch Tibbiy Yordam Ilmiy Markazlari Qabul bo'limlar) olib borilishi kerak. Agar bemorda gipotermiya bo'lsa, ko'rsatmaga ko'ra doimiy yurak-o'pka reanimatsiyasi (CPR)

o'tkazilishi kerak bo'ladi. Gipotermiya bilan og'riqan bemorlarda normotermik bemorlarga qaraganda xayotini saqlab qolish va yaxshi nevrologik natijalar kuzatilmaydi va asistolik yurak to'xtashi kuzatiladi. Uzoq muddatli qutqarish uchun, agar mavjud bo'lsa, mexanik sun'iy nafas olish moslamalaridan foydalanish kerak.

**Kalit so'zlar:** gipotermiya, ham tana harorati tez pasayishi, yurak xuruji xavfi, Shoshilinch Tibbiy Yordam Ilmiy Markazlari, yurak-o'pka reanimatsiyasi, normotermiya

переохлаждение, как быстрое снижение температуры тела, риск сердечного приступа, научные центры неотложной помощи, сердечно-легочная реанимация, нормотермия

hypothermia, as a rapid decrease in body temperature, risk of heart attack, scientific emergency centers, cardiopulmonary resuscitation, normothermy

## KIRISH

Tadqiqot davomida Jizzax viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi qabul bo'limiga 01.01.2024 dan 21-fevral 2024 gacha bo'lgan muddatda jami 2333 ta bemorlar orasidan bolalardagi gipotermik ko'rsatkichlar bilan murojat qilgan 52 ta bemor o'rganildi. Bemorlarning 31 nafari o'g'il bolalar, 21 nafarini qiz bolalar, bular orasida eng kichik yoshli bemor 4 oylik 2 nafar o'g'il bola 1 nafar qiz bola bo'ldi.

Tana harorati ko'rsatkichlari pasayish bilan murojat etgan eng katta yoshli bemor 14 yosh 6 oylik o'g'il bola tana haroratining 35.5 C ko'rsatkichi bilan murojat qilgan. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra gipotermiyaning klinik ko'rinishlaridan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida ota – onalari tomonidan umumiy xolsizlik, gipodinamiya, yengil xushning buzilishi kabi xolatlar kuzatilgan.

Qabul bo'limida bemorlarga tashxis	Bemorlar soni
O'tkir respirator kasallik	22 ta
Gipotermik xolat	23
O'tkir obstruktiv bronxit	4
O'tkir bronxit	1
Qandli diabet II – tip	1

Gipotermik ko'rsatkichlar bilan murojaat qilgan bolalarga qabul bo'limidagi tashxis natijalari.

Tana harorati pasayishi bilan murojaat qilgan bemorlarning onasi va bazi yaqinlarining so'zlariga ko'ra bemorlarga o'zlaricha dori vositalarini uy sharoyitida tavsiya qilganlari, aksaryat bolalarga

uy sharoitida infuzion muolajalarni zararli miqdorlarda qilinganligini , qayta qayta bitta dori vositasini kiritilganligini , o'zlariga yaqin bo'lgan davolash muassasasiga murojat qilinmaganligini , bir qancha o'rnlarda dorixona sotuvchisining tavsiyasiga ko'ra , ba'zi bolalarga tanishlari yoki yaqinlari farzandlariga bergan dorilarini berganliklarini ko'rishimiz mumkun.

<b>I.Termoregulyatsiyaning buzilishi.</b>	<b>II.Issiqlik xosil bo'lishining kamayishi</b>	<b>III.Issiqlik yo'qotilishining ortib ketishi</b>
<u>1.Markaziy nerv tizimining zararlanishi oqibatida.</u>	<u>1.Endokrin buzilishlar</u>	<u>1.Yatrogenik</u>
Insult – ishemik yoki gemorragik	Alkogol yoki diabetic ketoatsidoz	Ekstremal (o'ta tez) tug'ruq
MNT ning jaroxatlanishi	Gipoadrenalizm	Isitilmagan infuzion terapiya
Metabolik buzilishlar	Gipofiz bezi gipofunksiyasi	Issiq urganda notog'ri yordam ko'rsatilishi
O'sma ksalliklari	Laktik atsidoz-qonda sut kislotasi to'planganda paydo bo'ladigan metabolik atsidozning bir turi.	2.Boshqa klinik xolatlar
MNS ning toksinlar bilan zaxarlanishi	2.Plastik yetishmovchilik	Kartsinomatoz
Dori vositalari (anestetik) bilan zaxarlanish	Og'ir jismoniy zo'riqish	Yurak o'pka kasalliklari
Parkinson kasalligi	Gipoglikemiya	Kata infeksi xolatlar
2.Periferik zararlanish	Oqsil energiya yetishmovchiligi	Qo'shma jaroxatlar
O'tkir orqa miya jaroxati		Shok
Periferik nevropatiya		

Ikkilamchi gipotermiyaga olib keluvchi quyidagi sabablar mavjud.

<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC8744717/pdf/ijerph-19-00501.pdf>

(2- bet)

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Inson gomeotermik tizim sanaladi.Uning tana harorati atrof muhit haroratidan qat'iy nazar 36.5°C va 37.5°C oraliq`ida bo'ladi. Inson organizmida tana harorati doimiyligi o'rtacha ~37 °C atrofida bo'lib uning doimiyligi avtonom tarzda maxalliy teri qismining terlashi yoki teridagi qon tomirlar xolatining o'zgartirilishi orqali nazorat qilinadi. Terining markaziy va pifirik qismlaridagi termoretseptorlar orqali afferent nerv signallari gipotalamusning oldingi preoptik qismiga uzatiladi. Gipotalamusdan efferent nerv signallari sudomotor – tashqi muxit issiq bo'lganda ter ajralishiga javobgar teridagi bezlar va vazomotor – teridagi qon tomirlar xolatini tashqi muhit haroratiga ko'ra o'zgartiradigan effektorlar orqali nazorat qilinadi. Bundan tashqari issiqlikning yo'qotilishida nafas olish orqali ham issiqlik yo'qotiladi.

Neonatal va pediatrik gipotermiyalar ko'p xollarda koagulopatiyalar, taxikardiya, respirator distress belgilari, bilan kuzatilib bolalar qabul bo'limlariga ko'p murojatlarning sabablaridan sanaladi(  
<https://www.openanesthesia.org/keywords/temperature-regulation-in-pediatric-anesthesia/>).

Pediatrik shoshilinch xolatlardan yana biri bolalardagi bakterimiya, ayiruv tizimi infeksiyalari yoki meningit kasalligi oqibatida xam bo'lishi kuzatiladi.  
(<https://publications.aap.org/pediatrics/article/150/6/e2022058213/189916/Hypothermia-In-Young-Infants?autologincheck=redirected>)

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gipotermiyaning 2021 yilgi Yevropa reanimatologlar jamiyati klassifikatsiyasi.

Og'irlik darajalari	Klinik belgilari	T	Bemorlar
Gipotermiya I (yengil)	Xushida , titroq	35–32 °C	Barcha bemorlar
Gipotermiya II (o'rta og'ir)	Yengil darajadagi xush buzilishi , titroq bor yoki yo'q	<32-28 °C	-
Gipotermiya III (og'ir)	Xushsiz , hayotiy ko'rsatkichlar saqlangan	<28 °C	-
Gipotermiya IV (o'ta og'ir)	Hayotiy ko'rsatkichlar saqlanmagan – o'lim	<24 °C	-

Classical staging of accidental hypothermia based on clinical signs [34].  
Reprinted with permission. Copyright 2021 European Resuscitation Council.

VBKTTM Jizzax filiali qabul bo'limiga murojat qilgan bemorlar onalari va yaqinlaridan anamnez yig'ish jarayonida eng keng tarqalgan muammolardan biri uy sharoyitida bolalarga infuzion terapiya, garmonlardan – deksametazon , istima tushirish maqsadida analgin inyeksion dori vositsidan 1 yoshgacha bo'lgan bolalarga xam ko'p xollarda foydalanilganligini , aksaryat xollarda bolalarda tana haroratini tushiruvchi vositalar qo'llanilgandan keyin bir oz vaqt kutmasdan sitima tushiruvchi dori vositalaridan o'zboshimchalik bilan pala partish foydalanish - 1 martada sutkalik dozadagi miqdorda dori berish xollari kuzatilgan.

Bu kabi noxush xolatlarni oldini olish uchun – aholi orasida , bundan tashqari ommavich axborot vositalari orqali dori vositalarini o'zboshimchalik bilan qo'llashning asoratlari ,

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda birlamchi gipotermiya yangi tug'ilgan chaqaloqlar va asosan 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda ko'p o'lim xolatlariga olib keluvchi omillardan sanaladi. Aniq raqamlarni keltirsak AQSH da yiliga 1500 ta, Shotlandiyada xar 100000 ming bemordan 2 tasi, Polshada xar 100000 ming bemordan 5 tasi birlamchi gipotermiyadan vafot etadi. Janubiy Amerika , Janubisharqiy Osiyo davlatlarida bu to'g'risida statistik ma'lumotlar keltirilmagan.

Xulosa qilib aytganda VBKTTM Jizzax filiali qabul bo‘limiga murojat qilgan bemorlar yaqinlaridan yig‘ilgan anamnez natijalariga ko‘ra dori vositalaridan o‘zboshimchalik yoki oliy tibbiy ma‘lumotga ega bo‘lmagan shaxslardan tavsiya so‘ramaslik , bemorlarga shifokor ko‘rigidan keyin dori vositalarini qo‘llash lozimligi to‘g‘risida tushunchalar berish lozimligi xulosa qilindi

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Linda J. Larson-Prior, University of Arkansas for Medical Sciences, United States (2-bet)
2. <file:///C:/Users/%D0%90%D0%B4%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%B8%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%82%D0%BE%D1%80/Downloads/psyt-13-866951.pdf>
3. Christopher Graves, MD,a Yu Hsiang Lo, MD,b Jamie L Holland, MD,c Nathan M Money, DO,d Andrew N Hashikawa, MD,e Alexander Rogers, MD,e Sriram Ramgopal, MDf (2-bet)
4. <https://publications.aap.org/pediatrics/article/150/6/e2022058213/189916/Hypothermia-In-Young-Infants?autologincheck=redirected>
5. Yibeltal Asmamaw Yitayew , Endashaw Belayhun Aitaye, Helina Wondimu Lechissa, and Lubaba Oumer Gebeyehu Department of Pediatrics and Child Health Nursing, College of Medicine and Health Science, Wollo University, Ethiopia(2-bet)
6. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7519202/#:~:text=Neonatal%20hypothermia%20is%20a%20progressive,%C2%B0C>